



SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

“Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash, saqlash va qayta ishlashni tashkil etish” kafedrası

5410500-Qishloq xo'jalik mahsulotlarini saqlash va dastlabki ishlash texnologiyasi bakalavriat yo'nalishi IV-kurs talabasi

Shomurodov Jasurjon Mansur o'g'lining

Sharob tayyorlashda turli achitqilarning maxsulot sifat k'rsatkichlarini aniqlashda zamonaviy fizik-kimyoviy usullarning qo'llanilishi mavzusi bo'yicha

BITIRUV MALAKAVIY IShI

Ilmiy rahbar, dotsent

SH.A.Ishniyzova

Samarqand -2015

MUNDARIJA

I. KIRISH

- 1.1. Ishning maqsadi.....
- 1.2. Mavzuni aktualligi.....
- 1.3. Ishning vazifalari.....
- 1.4. Ilmiy ishning yangiligi.....
- 1.5. Ilmiy amaliy ahamiyati.....

II. UZUMNING SHAROBBOPO NAVLARI VA ULARNING TAVSIFI..

- 2.1. Uzuning sharobbop navlari.....
- 2.2. Uzun boshog'ining tuzilishi va kimyoviy tarkibi.....
- 2.3. Uzumni pishiklik darajasi.....
- 2.4. Uzumni qayta ishlashga qabul qilish.....
- 2.5. Uzun sharbatini bijg'itish va unga ta'sir etuvchi omillar.....
- 2.6. Bijg'ishning uzlukli va uzluksiz usullari.....
- 2.7. Bijg'ishni nazorat qilish.....

III. ACHITQILAR VA SIFAT KURSATKICHLARNI ANIQLASH.....

- 3.1. Uzun boshi va g'ujumini mexanik taxlil qilish.....
- 3.2. Uzuning texnik navlarini sifat ko'rsatkicxlarini taxlil qilish.....
- 3.3. Uzun g'ujumi sharbati tarkibidagi qandini aniqlash.....
- 3.4. Uzun g'ujumi sharbatining umumiy kislotaligini aniqlash.....
- 3.5. Sharoblar tarkibidagi spirtni aniqlash.....
- 3.6. Vinoning solishtirma og'irligi va spirtning miqdoriga qarab ekstrakti xisoblash.....
- 3.7. Sharobdagi achitqi xujayralarni fiziologik xolatini aniqlash..
- 3.8. SO₂ sulfid angidrid ishchi eritmasini tayyorlash.....

IV. SIFAT KURSATKICHLARNI ANIQLASH

- 4.1. Maxsulot sifati ko'rsatkicxlarni aniqlash uslublari.....
- 4.2. Qishloq xo'jaligi maxsuloti sifatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar.....

V. MAXSULOT XAQIDAGI MA'LUMOTLARNI STANDARTLASH VA KODLASH.....

VI. INTERNET MA'LUMOTLARI.....

VII. XULOSA.....

VIII. ADABIYOTLAR.....

IX. TAQDIMOT.....

I.KIRISH

Axolining oziq-ovqat mahsulotlariga va qayta ishlash sanoatining xom ashyoga bo'lgan ehtiyojini qondirish maqsadida ta'minotni tubdan yaxshilash xamda uni uzluksiz kupaytirib borish davr talabidir. Ayniqsa, bu borada meva-uzum, kartoshka, sabzavot va poliz mahsulotlarini saqlash va qayta ishlashga aloxida e'tibor berish lozim. Mahsulot yetishtirish ortib borgai sari, uni saqlash va qayta ishlash usullari xam takomillashib, yangi zamonaviy omborxonalar va qayta ishlash korxonalarini bunyod etilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki bozorni to'ldirish yuzasidan qo'shimcha choratadbirlar to'g'risida qarorida Respublika axolisining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini barqaror ta'minlash, ichki iste'mol bozorini mamlakatimizda ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlari bilan bekamu-ko'st to'ldirish, asosan qishloq joylarda zamonaviy yuqori unumli texnika va texnologiya bilan jixozlangan qayta ishlovchi ixcham korxonalarni jadal barpo etish, shu asosda yangi ish joylarini shakllantirish, ko'proq odamlarni ish bilan ta'minlash, ularning daromadlari va farovonlik darajasini oshirish takidlangan.

Ma'lumki uzum inson uchun qimmatbaxo, parhez va oziq-ovqat mahsuloti xisoblanadi. Yaxshi pishgan uzum tarkibida 30% gacha, so'liganida 40 % va undan ko'p qand moddalari (glyukoza va fruktoza, qisman saxaroza) bo'ladi. Olma, vino, limon, qaxrabo, chumoli, shovul, salisil kabi organik kislotalar, kaliy, kalsiy, natriy, fosfor, temir kabi mineral tuzlar, A, S, R, V gurux vitaminlari, vitamin RR kabilar ko'p.

Prezidentimiz o'z ma'ruzalarida mamlakatni modernizasma kilishning prinsipial axamiatga ega bo'lgan asosiy yo'nalishlariga yana bir bor e'tibor qaratib o'tdilar.

№	Варак	№ хужжат	Илмо	Сана			
Бажарди					Адабиёт	Варак	Вараклар
Рахбар							
Масъумат							
Т.масъумат							
Тасдиқлади							

Qishloqda sanoat ishlab chiqarishi va qurilishni jadal rivojlantirish, meva-

sabzavot va chorva mahsulotlarini qayta ishlash bo'yicha zamonaviy texnika xamda texnologiyalar bilan jixozlangan ixcham korxonalarini tashkil etish chora-tadbirlarini amalga oshirishdan iborat. Bu borada vazifa keng miqyosda qo'yilmoqda – ya'ni, qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish xisobidan qishloqda ixcham texnologiyalar bilan jixozlangan yangi, zamonaviy qayta ishlash korxonalarini shakllantirish va ularning keng ko'lamda faoliyat yuritishi uchun xar tomonlama mustaxkam xomashyo bazasini tashkil etish zarur.

Ma'lumki meva va sabzavot mahsulotlarini asosiy qismini yetishtirish bahor, yoz va kuz oylariga tug'ri kelib, ularni pishib yetilish muddatlariga qarab saqlash va qayta ishlash oqilona tashkil etilmas ekan, axolini turli shifobaxsh moddalarga boy mahsulotlar bilan ta'minlab bulmaydi.

Uzumchilik oldida turgan yana bir dolzarb masala - bu uzumchilik va vinochilikni serdaromad va yuksak rentabelligini ta'minlovchi ta'sirchan va samarali vositalarini ishlab chiqishdir. Aktual masalalar qatoriga yana mavjud navlarni takomillashtirish, ularni sovuqqa, kasalliklarga chidamli xosili mo'l va sifatli yangi navlar bilan to'ldirish; ko'chat yetishtirish, tok o'stirish, ekologik toza xosil olish, uni qayta ishlashning yangi texnologiyasini ishlab chiqish kiradi, xamda ekologik muommolarni yechishda kam miqdorli toksik elementlarni aniqlash usullariga katta e'tibor berilmoqda.

Qishloq xujalik mahsulotlari va undan qayta ishlangan mahsulotlartarkibidagi elementlarni aniqlashda turli fizik kimyoviy usullar qullaniladi. Qayta ishlash korxonalarini tarkibidagi taxlilxonalarda zamonaviy fizik kimyoviy usullarni mavjudligi va mutaxassislar tomonidan mavjud usullardan eng maqbulini tanlash asosiy vazifalaridan biridir

1.1.Ishning maqsadi. Uzum mahsulotlarining sifat ko'rsatkichlarini aniqlashda va baxolashda qo'llaniladigan fizik-kimyoviy usullarni o'rganish va ishlab chiqarishda xamda taklif qilinayotgan usullarning afzalligini ko'rsatish. Samarqand shaxridagi qishloq xujalik mahsulotlarini qayta ishlash korxonalaridagi qishloq xujalik mahsulotlari va uni qayta ishlangan mahsulotlar sifatini baxolashda

Бажарди					Барак
Техиларди					
Узе	Барак	Ме хужжати	Илмо	Сана	

qullanilayotgan fizik-kimyoviy usullarni taxlil qilish qullanilayotgan fizik kimyoviy usullarni avfzalligini va kamchiliklarini o'rganish va eng maqbulini tanlash.

1.2.Mavzuni aktualligi ekologik muommalarni yechishda kam miqdorli toksik elementlarni aniqlash usullariga katta e'tibor berilmoqda. Qishloq xujalik maxsulotlari va undan qayta ishlangan maxsulotlartarkibidagi elementlarni aniqlashda turli fizik kimyoviy usullar qullaniladi. Qayta ishlash korxonalarini tarkibidagi taxlilxonalarda zamonaviy fizik kimyoviy usullarni mavjudligi va mutaxassislar tomonidan mavjud usullardan eng maqbulini tanlash asosiy vazifalaridan biridir.

1.3.Ishning vazifalari.

- Aniqlanayotgan element o'behtining konsentrsiyalash taxlil qilish va joylarda qullanilishi.
- Zamonaviy fizik kimyoviy metodlarni taxlil qilish.
- Qishloq xujaligi maxsulotlarini sifatini baxolashda gidrod xosil qiluvchi elementlarni atom adsorbision usulda aniqlash.
- Qalay va silenni aniqlashda sensorli usullarni qullanilishi.
- Uzum. meva va sabzavotlarni saqlash usullarini
- Achitqilarning turlari va ularda kechadigan o'zgarishlarni o'rganish

1.4.Ilmiy ishning yangiligi. Samarqand shaxridagi qishloq xujalik maxsulotlarini qayta ishlash korxonalarini qoshidagi taxlilxonalardagi maxsulotlar sifatini baxolashda ishlatiladigan fizik kimyoviy usullar taxlili qullaniladigan usullarni avfzalligi miqdori va kamchiliklari

-Maxsulot sifatini baxolashda zamonaviy fizik kimyoviy usullarni qullash nitrat vitaminlar miqdorini aniqlashda kimyoviy usullarni qullash imkoni kursatilgan

-Meva. uzum va uzum maxsulotlarida quruq modda va kislotaligini aniqlash shuningdek kanddorligini va spirt miqdorini aniqlash imkonini beradi.

1.5.Ilmiy amaliy axamiyati. Uzum va uzum maxsulotlarida sifat kursatgichlarini aniqlashda yuqori sezgir aniq fizik kimyoviy usullar atom adsorbision. gidridga utkazish texnikasini qullash yordamida kimyoviy sensorli detchiklarni qullash imkoni kursatilgan.

Бажафори					Барак
Техширди					
Узг	Барак	№ ҳужжат	Имзо	Сана	

II.UZUMNING SHAROBOP NAVLARI VA ULARNING TAVSIFI.

2.1. Uzumning sharobbop navlari.

Malumki, sharob ishlab chiqarish sanoatining asosiy xom-ashyosi uzum xisoblanadi. Adabiyotlardan olingan ma'lumotlarga qaraganda hozirgi vaqtda dunyoda yetishtirilayotgan uzumning 6-8% i bevosita istemol sifatida, 88% i sharob tayyorlashga va 4-6% i quritilib mayiz tayyorlashga yo'naltiriladi.

Shu bois, mavjud bo'lgan tok navlari ishlatilishiga qarab sharobbop, mayizbop va xo'raki navlariga bo'linadi.

Ўzbekiston sharoitida yetishtiriladigan uzumning asosiy qismi sharobbop navlari ulushiga to'g'ri keladi.

Sharobbop navlarining uzum boshog'i, boshqa navlariga qaraganda katta bo'lmaydi. Shiradorligi kamroq bo'lib, nordonligi (kislotaliligi) birmuncha yuqori bo'ladi.

Quyida Ўzbekistonda yetishtiriladigan sharobbop uzum navlarining tavsifini keltiramiz.

Aleatika-Italiyadan keltirilib,Ўzbekistonning janubiy rayonlarida o'stirishga moslashtirilgan o'rta pishar sharobbop uzum navi xisoblanadi. Uzum boshog'ining bosh qismi konussimon shaklida bo'lib, o'rtacha kattalikga ega, g'ujumi dumaloqsimon ko'k-qizg'ish tuslidir. Bu uzumning 1000kg dan 750 l yani 75% sharbat olinadi. Ushbu navli uzum boshog'ining o'rtacha og'irligi 202gr, tagazi 4,5%, urug'i 4,2% atrofida bo'ladi.

Uzumning bu navi sentyabr oyining o'rtalarida pishadi,tarkibidagi qand miqdori 25-29% gacha, kislotaliligi 4-7g/l gacha bo'ladi. Uzumning bu navidan asosan qizil vinomateriallar tayyorlanadi.

Бажарди					Барак
Текширди					
Ўзг	Барак	№ ҳужжат	Йил	Сана	

Aligote-Fransiyadan keltirilib

Ўzbekistonda moslashtirilgan, o'rtacha pishar sharobbop uzum navi xisoblanadi. Uning boshog'i o'rtacha xolatda, g'ujumi zich, oq-ko'kish tusli bo'ladi. Bunday uzum navidan o'rtacha 75-80% atrofida sharbat olinadi.

Bu uzum boshog'ining o'rtacha og'irligi -146 gr, donalar soni- 93 ta, tagazi-4,4%, urug'i- 3,3%, po'sti-4,5% ni tashkil qiladi.

Uzumning bu navi avgust oyining oxirlarida pishadi, tarkibidagi qand miqdori 19,2-25%, kislotaliligi 6,2-8,1 g/l gacha bo'ladi. Undan sof va shampan vinolari uchun vinomaterial tayyorlanadi.

Buvaki-jaydari sharobbop uzum navi xisoblanadi. Uzum boshog'i katta, uzunchoq konussimon bo'lib, donalarining zichligi o'rtacha xolatda bo'ladi. Uning rangi och yashil va sarg'ish tusli, mag'zi shirin mazali va po'stlog'i qalindir.

Ushbu navli uzum boshog'ining o'rtacha og'irligi-247 gr, tagazi -4,0% , po'stlog'i -3,5%, urug'i 3,5% atrofida va 75-80% i sharbat bo'ladi. Uzumning bu navi sentyabr oyining boshlarida pishadi. Uning tarkibida 22-24% gacha qand va 4-5 g/l miqdorida kislota bo'ladi. Undan desert vinolar tayyorlashda foydalaniladi.

Bishti –jaydari iste'mol va vinobop uzum navi xisoblanadi. Uzum boshog'i o'rtacha kattalikda bo'lib, donador joylashgan. Uning rangi yashil – sarg'ish bo'lib, po'stlog'i juda yupqa. Uzum boshog'ining o'rtacha og'irligi 350 gr, tagazi 2,6 % , urug'i 3,6%, po'stlog'i va mag'zi 7,6% ni tashkil etadi.

Uzumning bu navi sentyabr oyining oxirlarida pishib yetiladi. Uning tarkibida 19-21,3% gacha qand va 5,2-7,0% gacha kislota bo'ladi. Ushbu uzum navidan mader va desert tipidagi vinolar tayyorlanadi.

Soyaki – jaydari, o'rtacha pishar sharobbop uzum navi xisoblanadi. Uzum boshog'i katta, konussimon shaklda bo'lib, donalari zich joylashgan .Uning rangi och-yashil tusda bo'lib, po'stlog'i yupqadir.

Ushbu uzum boshog'ining o'rtacha og'irligi 750 gr, tagazi 2,6%, urug'i 2,0%, po'stlog'i 7,6% va sharbat miqdori mag'zi bilan birgalikda 86-87,5% ni tashkil qiladi. Bu uzum xosilidan shampan sharobi uchun vinomaterial tayyorlanadi.

Бажарди					Барак
Текширди					
Узг	Барак	№ ҳужжат	Илмо	Сана	

Oq toyfi – jaydari, kech pishar, xo'raki va sharobbop uzum navi xisoblanadi. Uning boshog'i katta, rangi oq-yashil tusli, po'stlog'i qattiq va mustaxkam bo'ladi. Ushbu uzum navida sharbat miqdori – 92% gacha, tagazi -3,0%, urug'i-2,3%, po'stlog'i-2,7% ni tashkil etadi. Uning tarkibida qand miqdori 18-20%, kislotaligi esa 5,5-5,7 g/l ni tashkil etadi. Undan qizil vinomaterial tayyorlanadi.

2.2.Uzum boshog'ining tuzilishi va kimyoviy tarkibi.

Uzum sharbati va vinomaterialning tarkibi ko'p jixatdan uzum tagazi, donalarining tuzilishi va strukturaviy tarkibiga bog'liq. Uzum boshog'ining tashkil etgan tagazi va donalarining og'irlik miqdori turli nav uzumlar uchun turlicha bo'ladi. U uzumning pishib yetilganlik darajasiga, ekologik iqlim sharoitiga va boshqa faktorlarga bog'liq. Normal sharoitda yetishtirilgan uzumda, bir boshog'ining 3-7% qismini tagazi, 15-20% po'stlog'i, 3-6% urug'i va uzum donasining 75-80 % ini sharbat tashkil etadi.

Uzum boshog'i donasining tuzilishi, uning mexanik xususiyatlarini xarakterlaydi. Bu esa o'z navbatida uzum boshog'ining kimyoviy tarkibiga bog'liq bo'ladi. Uzum boshog'ining kimyoviy tarkibi juda murakkab bo'lib, u turli guruxdagi organik va anorganik moddalardan iborat. Uzum boshog'ining tarkibidagi kimyoviy moddalarning miqdori, uning strukturaviy tarkibiga ko'ra turlicha bo'lib, uning qiymati o'rtacha xolda quyidagi jadvalda keltirilgan.

jadval

Uzum boshog'ini tashkil etuvchi kimyoviy moddalar

(% xisobida)

t/r	Moddalar nomi	Mag'izli sharbat	Po'stlog'i	Urug'i	Tagazi
1.	Suv	60-90	60-80	25-50	55-80
2.	Shakar	10-30	-	-	-
3.	Klechatka	-	4	5	30
4.	Vino kislotasi	0,4-1,0	-	-	-
5.	Olma kislotasi	0,1-1,5	-	-	0,3

6.	Oshlovchi moddalar	-	0,5-4,0	2-8	1-5
7.	Azotli moddalar	0,2-0,5	2	6	2
8.	Mineral moddalar	0,1-0,6	2,5	1-5	1-8
9.	Yog'lar	-	0,1	8-15	-

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, uzum boshog'ining asosiy qismini shakar tashkil qilib, u mag'zli sharbat xisobiga to'g'ri keladi. Uzum sharbati bijg'itilganda spirt va CO₂ gaziga parchalanadi, ya'ni;



Klechatka asosan uzumning tagazi, urug'i va po'stlog'i tarkibida bo'lib, ularning strukturasi tashkil etadi.

Vinomaterial uchun organik kislotalarning ahamiyati juda katta xisoblanadi. Amaliyotda vinomateriallar tarkibidagi vino va olma kislotalarining miqdori va ularning o'zaro nisbati uzumning yetilish darajasini belgilaydi. Pishib yetilmagan uzum tarkibida olma kislotasining miqdori ko'p bo'lib, u vinoda nordon ta'mni xosil qiladi. Vino kislotasi vinomaterialni saqlash va tindirish davrida sig'imlarning tubiga cho'kadi va ajratib olinadi.

Vino kislotasi va uning tuzlari qandolatchilikda, to'qimachilikda va tibbiyotda ishlatiladi.

Yog'lar asosan uzum donasining urug'i va po'stlog'ida bo'lib, oziq-ovqat sanoatida yog' ajratib olish uchun ishlatiladi. Po'stlog'idagi moylar esa uzum donalarini iqlimiy ta'sirlardan va turli mikroorganizmlardan zararlanishdan saqlaydi. Uzum tarkibidagi oshlovchi va azotli moddalar asosan tagaz, po'stloq va urug'da to'plangan bo'lib, uni qayta ishlash jarayonida e'tiborga olinishi zarur. Musallas tipidagi va shampän vinolari uchun vinomateriallar tayyorlashda bunday moddalar bo'lmasligi kerak. Shu sababli bunday vinolarni tayyorlashda sharbatni tezda ajratib, uni tagaz, po'stloq va urug' bilan birgalikda ko'p saqlashga yo'l qo'yilmaydi. Kuchli va maderä tipidagi vinomateriallarni tayyorlashda esa sharbatga bu moddalar o'tishi kerak. Shu sababli bunday vinolarni tayyorlashda sharbat, tagaz, po'stloq va urug' bilan birgalikda saqlanib, qizdirilib bijg'itiladi.

Uzum tarkibidagi mineral moddalarning miqdori turlicha bo'lib, uning kattaligi iqlim sharoitiga va pishib yetilish darajasiga bog'liq. Mineral moddalar vinomateriallarning mazasiga va uning bijg'ish jarayonidagi achitqilarning faolligiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Uzum sharbati tarkibidagi mineral moddalarning o'rtacha miqdori quyidagi 2-jadvalda keltirilgan.

jadval

Mineral moddalar miqdori.

t/r.	Makroelementlar	Miqdori, mg/l	t/r.	Makroelementlar	Miqdori, mg/l
1.	Kaliy	400-1800	1.	Marganes	1-3
2.	Kalsiy	50-250	2.	Bor	1-5
3.	Magniy	40-200	3.	Rubidiy	0,3-2
4.	Fosfor	100-1300	4.	Ftor	0,1-0,5
5.	Natriy	20-200	5.	Yod	0,1-0,5
6.	Temir	1-20	6.	Molibden	0,01

Uzum tarkibidagi mikroelementlar (xlor, rux, mis, qo'rg'oshin) moddalarning belgilangandan ortiqcha bo'lishi sanitariya va gigiyena qoidalari bo'yicha cheklanadi.

2.3.Uzimni pishiklik darajasi.

Uzumdan tayyorlangan vinomaterialning sifati, uzumni pishib yetilish darajasiga va uni uzish usullariga bog'liq. Amaliyotda uzumni uzish jarayoni va muddati, uning qaysi maqsadda ishlatilishiga va pishish darajasiga qarab belgilanadi. Uzumni pishish darajasi quyidagi 3 ta guruxga bo'linadi.

Iste'molbop pishiqlik – bu uzumning iste'mol qilish uchun yaroqli bo'lgan pishiqlik davri xisoblanadi. Bu davrda uzumlar naviga xos ko'rinishga, o'ziga xos navga, xidga va mazaga ega bo'ladi. Bunday pishiqlikga ega bo'lgan uzumlarni uzoq joylarga jo'natish maqsadga muvofiq bo'lmaydi.

Terimbop pishiqlik – bu davrda oziqa moddalari juda ko'p to'planadi. Uzum boshog'ining kattalashishi to'xtab, naviga xos rangga kiradi. Bunday pishiqlikda terib olingan uzum uzoq saqlanadi. Uzoq joylarga jo'natish va qishda saqlash uchun mo'ljallangan uzumlar shu pishiqlikda uziladi.

Texnik pishiqlik – bu uzumni qaytadan ishlab sharbat va vinomaterial tayyorlash uchun yaroqli bo'lgan davr xisoblanadi. Bunday uzum to'liq pishib yetilgan, uning tarkibidagi shakar miqdori eng ko'p va kislota miqdori eng kam bo'ladi.

Uzumni uzish jarayoni, uzum navlari bo'yicha pishib yetilishiga ko'ra amalga oshiriladi. Uzumni uzish va qayta ishlash davri 15-20 kun bo'lib, u uzum naviga, ob-xavo va tayyorlanadigan vinomaterial turiga bog'liq bo'ladi. Bu davr mobaynida uzum sharbati tarkibidagi organik va noorganik moddalarning kerakli miqdori asosan o'zgarmaydi.

Uzumni uzish jarayoni qo'l va maxsus mashinalar yordamida amalga oshiriladi. Uzumni uzishda kasallangan, ezilgan va chirigan uzumlar olib tashlanadi.

Uzum maxsus savatlarda, zanglamaydigan chelaklarda terilib, so'ngra maxsus yog'och yashiklar, konteynerlar yoki maxsus jixozlangan mashina kuzovi priseplarga yig'ilib, qayta ishlash korxonalariga ya'ni vinopunktlariga olib kelinadi.

Fransuz olimi, professor J.Rebero-Gayonu fikricha uzumni uzish va qayta ishlash korxonalariga keltirishning quyidagi 4 xil usuli mavjud.

Birinchi usulda uzumning sifati yaxshi saqlanadi, bunda uzum uzilib yashik va savatlarga solinib qayta ishlashga olib kelinadi. Bu usuldan iste'molga, kompot tayyorlashda va quritish uchun mo'ljallangan uzumlarni uzushda foydalaniladi.

Ikkinchi usulda uzum uzilganda uning ma'lum bir qismi mexanik shikastlanadi. Chunki bunda savat va chelakda uzilgan uzum dastlab maxsus konteynerlarga joylanib, keyin qayta ishlash korxonasiga olib boriladi. Uzumni konteynerlarga solish va bo'shatishda uning ma'lum bir qismi shikastlanadi. Bu usuldan, shampan vinosi tayyorlashda ishlatiladigan uzumlar uzilganda qo'llaniladi.

Uchinchi usul eng ko'p qo'llaniladigan usul bo'lib, bunda uzum qayta ishlash korxonalariga olib borish davriga qadar 4 bosqichni o'taydi. Uzum chelaklarda teriladi, chelakdan maxsus savatlarga solinadi, savatdan esa maxsus avtomashina kuzoviga yoki telejkaga solinib qayta ishlash korxonasiga keltiriladi. Telejka yoki avtomashina kuzovidagi uzumning qalinligi 60 sm dan oshmasligi zarur.

To'rtinchi usul maxsus uzum uzish mashinalari yordamida amalga oshiriladi. bu usul boshqa usullarga qaraganda uzumning sifatiga ta'sir qilsa xam, uning unumdorligi qariyb 20 marotaba yuqoriligi bilan farq qiladi.

2.4.Uzumni qayta ishlashga qabul qilish.

Oziq-ovqat sanoatining asosiy tarmog'i xisoblangan vinochilik ikki bosqichli jarayondan iborat bo'lib, birinchi bosqichda uzum qayta ishlanib undan vinomaterial tayyorlanadi. Ikkinchi bosqichda esa vinomaterial qo'shimcha ravishda ishlanib tayyor vinomaterial xoliga keltirilib saqlanadi va qadoqlanib iste'molchilarga chiqariladi. Uzumni qayta ishlab vinomaterial tayyorlash korxonasi *vino punktlari* deyilib, ular asosan uzum yetishtiriladigan joylarda quriladi. Vinomaterialni tayyor maxsulot xolatiga keltirib, uni qadoqlab iste'molchilarga uzatadigan korxonalarni *vino zavodlari* deyiladi va bunday korxonalar iste'molchilarga yaqin bo'lgan joylarda quriladi.

Vinochilikning birinchi bosqichi bo'lgan vinomaterial tayyorlash jarayoni quyidagi texnologik operatsiyalarni o'z ichiga oladi: uzumni uzish, tashish, qabul qilish, qayta ishlash, sharbat xosil qilish, tindirish, bijg'itish va vinomaterial olishdan iborat.

Uzumni qayta ishlash uchun partiya xolida qabul qilinadi. Uzumning partiyasi deb bitta transport vositasida va bitta ilova xujjat orqali rasmiylashtirilib qabul qilingan uzum miqdoriga aytiladi.

Uzumni qabul qilish tartibi va uning sifatiga qo'yiladigan talablar GOST-24433-80 va OST-10-66-87 standartlar bo'yicha amalga oshiriladi. Qayta ishlashga olib kelingan uzum miqdori maxsus avtomobil tarozilarida o'lchanadi. So'ngra standart bo'yicha belgilangan tartibga asosan namunalar olinib, ularning tarkibidagi

qand va kislotalik miqdori aniqlanadi. Uzuning navlari bo'yicha kimyoviy tarkibining standartga mos keladigan ko'rsatkichlari quyidagi 3-jadvalda keltirilgan.

jadval.

Texnik navli uzum sharbatining kimyoviy tarkibi.

Vinomaterial turlari	Titrlanadigan kislotalik ,g/l	MIQDORI			
		Qand, g/100ml	Oshlovchi modda, g/l	Rang beruvchi modda ,g/l	Azotning umumiy miqdori, g/l
1. Oq rangli uzum navlari:					
Shampanskiy	7-11	17-19	0,5	-	0,15-0,5
Musallas	6-9	17-20	0,8	-	0,4-0,6
Kuchli vino	5-7	20	0,5-1,0	-	0,5-0,7
Madera	5-7	20	1,0-1,5	-	0,4-1,0
Desert	4-7	22	1,0	-	0,4-0,8
Likyor	4-6	24	1,0	-	0,4-0,8
2. Qizil rangli uzum navlari:					
Musallas	5-8	18-22	1,0-2,0	0,5-1,0	0,5-0,6
Kuchli vino	5-8	20	1,5-2,5	0,7-1,0	0,6-0,8
Desert	4-7	22	1,0-1,5	0,5-0,8	0,5-0,6
Likyor	4-6	24	0,7-1,2	0,4-0,6	0,5

Tarozida o'lchanib, laboratoriya tekshiruvidan o'tgan uzum vinomaterial tayyorlash uchun qabul qilinadi. Shunday qilib, vinopunktiga keltirilgan uzum transport vositasidan qabul qilish bunkeriga bo'shatiladi. Qabul qilish bunkerini zanglamaydigan materialdan tayyorlangan bo'lib, shnekli transportyor bilan ta'minlangan. Shnekli transportyor keltirilgan uzumni maydalashga uzatish uchun xizmat qiladi. Uning markalari va texnik ko'rsatkichlari quyidagi 4-jadvalda keltirilgan.

Qabul qilish bunkerlarining markalari va texnik ko'rsatkichlari.

Ko'rsatkichlar	Turlari (markalari)			
	VBSH-10	VBSH-20	VBSH-30	VBSH-50
Uzum buyicha ish unumdorligi, t/soat	10	20	30	50
Bunker xajmi, m ³	6	6	12	12
Shnek o'lchami:				
-diametri, mm	400	400	450	450
-qadami, mm	250	250	320	320
-aylanish soni, ayl/m	7	13	8	13
Uzatmaning quvvati, kVt	1.0	1.5	3.0	3.0
Ylchamlari, mm				
-uzunligi	4400	4400	5500	5500
-eni	3000	3000	2600	2600
-balandligi	2100	2100	2300	2300
Og'irligi, kg	350	400	500	500

2.5. Uzum sharbatini bijg'itish va unga ta'sir etuvchi omillar.

Spirтли bijg'ish – vinomaterial tayyorlashning asosiy texnologik jarayoni bo'lib, bu jarayonda xosil bo'lgan moddalar vinoga o'ziga xos maza, ta'm va xid beradi. Kuchli vinomateriallar tayyorlanganda sharbat tarkibidagi qandning bir qismi, musallas tipidagi vinomateriallar tayyorlanganda esa sharbat tarkibidagi qandning xammasi bijg'iydi. Spirтли bijg'ish murakkab biokimyoviy jarayon bo'lib sharbat tarkibidagi qand moddalarining achitqi xujayrasi ajratib chiqargan ferment ta'sirida parchalanishiga asoslangan. Bijg'ish natijasida etil spirti, karbonad anhidrid gazi xamda vinomaterialga ta'm va maza beruvchi boshqa ikkilamchi moddalar xosil bo'ladi. Spirтли bijg'ishning umumiy ko'rinishi quyidagi xolatda bo'ladi.



Bijg'ish jarayonining xarorati, zichligi va tashqi ko'rinishi xar doim kuzatilib, nazorat qilib turiladi. Bijg'ish davrida sharbatning xajmi ortib, issiqlik ajralishi tufayli uning xarorati xam ko'tariladi.

Bijg'ish jarayoni maxsus tayyorlangan achitqi ishtirokida amalga oshiriladi. Achitqi sharbat miqdorining 2% ni tashkil qiladi. Achitqining faolligi unga ta'sir etuvchi fizikaviy, kimyoviy va biologik faktorlarga bog'liq bo'ladi.

Fizikaviy faktorlar. Achitqi faoliyatiga ta'sir etuvchi omillardan biri xaroratdir. Yuqori xaroratda sharbat tezda bijg'ib, undan bir qism aromat moddalar uchadi, spirt yo'qoladi, achitqining faoliyati to'xtaydi va natijada sharbat to'laligicha bijg'imay qoladi. Past xaroratda esa achitqilar ko'payishdan to'xtab, bijg'ish jarayoni to'xtaydi. Shu sababli bijg'ish jarayoning optimal xarorati 18-28 °S ni tashkil etishi zarur.

Kimyoviy faktorlar. Achitqining ko'payishi uchun kislorod yetarli darajada bo'lishi zarur. Bijg'ish jarayonining tezligiga, achitqi faolligi bilan sharbatning tarkibiga bog'liq bo'ladi. Shuningdek, sharbat tarkibidagi qand moddasining miqdori 60% gacha bo'lsa, achitqi bunday sharbatni parchalay oladi. Shu sababli xam vinomaterial tayyorlashda qandning miqdori achitqi faoliyatiga uncha ta'sir etmaydi. Lekin, muxit tarkibidagi spirt miqdori achitqi faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, chunki bijg'ish jarayonida sharbat tarkibidagi spirt miqdori ortib boradi. Sharbat tarkibidagi mavjud bo'lgan yovvoyi achitqilar muxit tarkibidagi 4% xajm miqdorli spirtida o'ladi. Bundan o'laroq, laboratoriya sharoitida tayyorlangan achitqilar esa 14% xajm spirt miqdoriga bardosh berib, 18% xajm spirtida o'ladi.

Shuningdek, bijg'ish jarayoniga SO₂ gazi xam salbiy ta'sir etadi, ya'ni bijg'ish jarayoni germetik yopiq idishlarda olib borilganda, idishdagi SO₂ gazining bosimi 0,4 mPa bo'lganda achitqi faoliyati keskin susayadi va bosim 3,2 mPa ga yetganda esa achitqi o'ladi.

Aytish joizki, bijg'ish jarayonida achitqi uchun asosiy ozuqa modda sharbat tarkibidagi azot moddasi xisoblanadi.

Biologik faktorlar. Sharbat tarkibida ko'p miqdorda turli xil mikroorganizmlar bo'ladi. Ular bijg'ish jarayoniga ta'sir etib, uning tugallanmay qolishiga sababchi bo'lishi mumkin. Shu bois, sharbat sulfitasiyalash va boshqa kimyoviy usullar bilan qayta ishlanadi.

2.6. Bijg'ishning uzlukli va uzluksiz usullari.

Хозirgi vaqtda vinochilik sanoatida bijg'itishning uzlukli va uzluksiz usullari qo'llanilmoqda.

Uzlukli usulda bijg'ish quyidagi uch bosqichni ya'ni yashirin, davomli va sekin bijg'ish davrlarini o'z ichiga oladi.

Bijg'ishning birinchi bosqichida yashirin bijg'ish yuzaga keladi. Bu davr tashqi tomondan kuzatilganda xyech qanday o'zgarish sezilmaydi, lekin sharbatdan namuna olib mikroskop ostida qaralganda achitqilarning keskin bo'linishi kuzatiladi. Bu davrda achitqi faoliyati uchun kislorod zarur bo'ladi. Achitqi soni bir kunda 2mill/ml yetganda bijg'ish jarayoni sezilarli darajada tezlashadi, bunda gliserin va boshqa ikkilamchi maxsulotlar xosil bo'ladi. Bu davr 1-2 sutka davom etadi va sharbat yuzasida yupqa qavat xosil bo'ladi.

Bijg'ishning ikkinchi bosqichida davomli bijg'ish sodir bo'ladi. Bu jarayonda asosiy o'zgarishlar amalga oshadi, ya'ni xarorat sezilarli darajada ko'tariladi, qand spirtga aylanadi. SO₂ gazi ajralib chiqa boshlaydi, achitqining miqdori oshadi, ikkilamchi maxsulotlarning to'planishi davom etadi. Bunda sharbat yuzasi ko'piklanib, xuddi suyuqlik qaynayotgandek vijillagan ovoz chiqib, sharbatning xajmi kengayadi. Bu bosqich 2-7 kun davom etadi. Xar 6-10 soatda sharbatning xarorati o'lchanib turiladi va zarur bo'lib qolgan taqdirda esa xaroratni pasaytirish choralari ko'riladi. Bu vaqtda sharbat tarkibidagi qand miqdorining asosiy qismi parchalanadi.

Bijg'ishning uchinchi bosqichi uning sekin bijg'ish davriga to'g'ri keladi. Bu bosqich muxitda 7-8% xajm spirt miqdori xosil bo'lgandan boshlanib, 3 sutkadan 12 sutkagacha davom etadi. Bijg'ishning davom etish vaqti asosan xaroratga bog'liq bo'lib, bu vaqtda achitqi o'z faoliyatini susaytiradi, muxitda achitqi faoliyati uchun ozuqa kamayib boradi. Bu davrda vinomaterial shakllana boshlaydi, shu sababli xam maxsulotning tarkibi aniqlanib, nazorat qilib turiladi.

Uzlukli usulda bijg'ish jarayoni asosan kichik xajmli bochkalar va katta xajmdagi metall va temir-beton sig'implarda amalga oshiriladi.

Uzluksiz usulda bijg'itishda ushbu jarayonning davom etish vaqti qisqaradi va maxsulotning yo'qolishi kamayadi. Bu usulda achitqining yashirin va sekin bijg'ish bosqichlari bo'lmaydi. Achitqi xar doim davomli bijg'ish bosqichida bo'ladi. Bu usul achitqining faolligiga yaxshi ta'sir ko'rsatadi. Uzluksiz bijg'itish vaqtida sharbatning uzluksiz xarakati natijasida bir qism achitqi bijg'itish qurilmasidan chiqib turadi, lekin uning ko'payish natijasida qurilmada achitqining miqdori kamaymaydi.

Sharbatni uzluksiz usulda bijg'itish, uzlukli usulga nisbatan quyidagi afzalliklarga ega:

1. Achitqining yashirin va sekin bijg'ish davri bo'lmaydi, natijada bijg'ishning davri qisqaradi.

2. Bijg'ish jarayoni uchun zarur bo'lgan kislorod, qand va boshqa moddalar sharbat bilan birga uzluksiz xolatda bo'ladi va natijada achitqi xar doim ko'payishning eksponensial fazasida bo'ladi.

3. Sharbat xar doim 4% xajm va undan ortiq spirt bor muxitda bijg'iydi. Bunday muxitda yovvoyi achitqilar faoliyat ko'rsata olmaydi, shu sababli xam o'ziga xos yaxshi tiniydigan vinomaterial olinadi.

4. Achitqi sarfi kamayadi va bijg'ishni boshqarish imkoniyati bo'ladi.

5. Bijg'ish jarayonini mexanizasiyalash va avtomatlashtirishg imkon yaratiladi, buning natijasida ish unumdorligi uzlukli bijg'ishga nisbatan 30-40% ga oshadi. Shu bilan birga uzluksiz usulda bijg'itishning quyidagi kamchiliklari mavjud:

1. Bijg'itish qurilmasining texnik jihatdan murakkabligi va bu qurilma o'z vazifasi bo'yicha faqatgina mavsumda ya'ni qisqa vaqt ishlatilishi.

2. Bijg'itish uchun bir vaqtda bir xil navli ko'p miqdordagi uzumning kerakligi va boshqalar.

Xozirgi vaqtda sanoatda uzluksiz bijg'itish jarayonida BA-1 va VBU-4N markali qurilmalardan foydalanilmoqda.

2.7. Bijg'ishni nazorat qilish.

Sanoatda olinadigan vinomateriallarning xar tomonlama sifatli bo'lishi bijg'itish jarayoniga bog'liq. Shu bois, bijg'ish jarayonida sharbat tarkibida bo'ladigan o'zgarishlar yani xarorat, spirt, qand, achitqi va boshqa ko'rsatkichlarning xolatlari tekshirilib, doimo nazorat qilib turiladi.

Amaliyotda bijg'ish jarayonini nazorat qilish bijg'ish jarayonidagi asosiy ko'rsatkichlarni (xarorat, spirt miqdori, qand, achitqi va boshqa) bir kunda 3-4 marta o'lchash orqali amalga oshiriladi. Olingan natijalar maxsus jadval va grafiklarga rasmiylashtirilib, taxlil qilinadi. Agar bijg'ish jarayonidagi biror ko'rsatkich bo'yicha chetlanishlar sodir bo'lganligi aniklansa, u xolda darxol normallashtirish choralari ko'riladi.

Ko'pchilik xolatlarda bijg'ish jarayonining normal ravishda borishining buzilishiga quyidagi xolatlar: ya'ni xaroratning normadan past yoki yuqori bo'lishi ; sharbat tarkibidagi oltingugurt angidridi (SO_2) miqdorining ko'pligi; achitqi faolliginig pastligi va boshqa mikroorganizmlar ta'sirida uchuvchan kislotalarning ko'payishi sabab bo'ladi.

Bijg'ishning normal borishini ta'minlash uchun xarorat normal xolatiga keltiriladi, yangicha achitqi qo'shiladi yoki boshqa tadbirlar amalga oshiriladi.

III. ACHITQILAR VA SIFAT KURSATKICHLARNI ANIQLASH

3.1. Uzum boshi va g'ujumini mexanik taxlil qilish

Mexanik taxlil uchun uzum tanlanadi. Mavjud nav uchun o'lchami, shakli va uzum boshi zichligi bo'yicha, sog'lom g'ujumlar. Uzum navlari uchun yirik uzum boshli, katta g'ujum bor, uzum 2 kg tarozida tortib olinadi, uzum boshli va g'ujumlari o'rtacha va kichik navlar uchun uzum 1 kg tarozida tortib olinadi.

Uzumni taxlil uchun olingan namuna uzum boshi miqdori sanaladi va texnik tarozida namuna umumiy og'irligi grammlarda aniqlanadi;

Uzum boshi o'rtacha og'irligi grammlarda aniqlanadi. Buning uchun texnik tarozida xammasini xar bir uzum boshini namunaga olinganidan o'lchash kerak o'rtacha ma'lumot jadvalga yoziladi;

G'ujumning umumiy soni va og'irligi xar bir boshidaligi aniqlanadi. Aloxida normal va mayda g'ujumlar sanaladi. Buning uchun zarur: qaychi, xar bir uzum boshidagi xamma g'ujumlar meva bandi yostiqchasi asosidan qaychi bilan kesiladi, keyin xisoblash va o'lchash o'tkaziladi. O'rtacha ma'lumot jadvalga yoziladi;

Shingil og'irligi o'lchanadi tarozida 0,1 g aniqlikda yoki xisoblash yo'li (uzum boshi va g'ujum og'irligi farqi shingil og'irligiga mos keladi) bilan aniqlanadi. Jadvalga o'rtacha ma'lumotlar yoziladi;

100 g'ujum og'irligini aniqlash;

- Po'sti, urug' va sharbati og'irligini aniqlash. Buning uchun kesilib olingan g'ujumlar bo'z material qopchalarga solinadi va yezib undan sharbat olinadi. Qopchada qolgan turpi varaqa filtrli qog'ozga to'kiladi, yengil quritiladi, undan urug' ajratiladi va tarozida tortiladi, keyin g'ujum po'sti, presslangan yet qismi bilan tortiladi, sharbat og'irligini aniqlash uchun namunadagi g'ujum og'irligidan po'stlari yeti bilan og'irligi va urug' og'irligi xisoblanadi, jadvalga o'rtacha ma'lumot yoziladi; 100 ta urug' og'irligini aniqlash. jadval

Uzumning shingil, sharbat, po'stlari va qattiq qismi yeti g'ujumni tarkibi

G'ujumdagi sharbat tarkibi	Sharbat % g'ujum og'irliklaridan	Shingil tarkibi	Sharbat % uzum bosh og'irliklaridan	Po'stlari va yetini qattiq qismi tarkibi	Sharbat %, g'ujum og'irliklaridan
Kam	60 dan kam	Kam	2 dan kam	Juda kam	10 dan kam
Ŷrtacha	60-70	Ŷrtacha	2-4	Kam	10-20
Yuqori	70-80	Yuqori	4-6	Ŷrtacha	20-30
Juda yuqori	80 dan yuqori	Juda yuqori	6 dan yuqori	Yuqori	30 dan yuqori

3.2.Uzumning texnik navlarini sifat ko'rsatkicxlarini taxlil qilish

Uzumni texnik navlarining asosiy sifat ko'rsatkichlariga uzum boshi o'lchami (katta, kichikligi) og'irligi, g'ujumining og'irligi, xajmi, rangi va uzum g'ujumi sharbatini qandligi va kislotaligi kiradi. Uzumning uzum boshi kattaligi, og'irligi texnik navlarining sifat ko'rsatkichlardan biridir.

Bu ko'rsatkichlar qarab, aniqlash uchun mavjud navning xar biridan shu navga xos bo'lgan o'rtacha 10 ta uzum boshi tanlanadi.

Xar bir uzum boshi kattaligini og'irligini yeni, bo'yi va uzum boshi og'irligi aniqlanadi v. Uzum boshining o'lchamini (kattaligi) aniqlash uchun namuna uzum boshi eni, bo'yi o'lchanadi va texnik tarozida uzum boshlari umumiy og'irligi grammlarda aniklanadi.

Uzum boshi o'lchami eni va bo'yi sm larda aniqlanadi. Bunda namunaga olingan xamma uzum boshlarini chizg'ich va shtangensirkulda.

Xar xil texnik uzum navlari uzum boshining katta kichikligi, og'irligini taxlilij ko'rsatkichlari

№	Nav	Ŷlchash uchun uzum boshi	Uzum boshi o'lchami, sm		Uzum boshini og'irligi, g	100 ta g'ujumni og'irligi, g	100 g'ujumning xajmi, sm ³
			eni	Bo'yi			
1	Bayan	1	80	15	350	340	300
	Shirey	2	90	14	320	300	280
		3	12	18	450	415	400
	Ŷrtacha		10	16.3	370	351	326

Uzum boshining og'irligi xar bir boshni texnik tarozida tortib o'lchanadi va olgan ma'lumot va jadvalga yoziladi.

100 ta g'ujum og'irligi 3 takrorlanishda tarozida tortilib aniqlanadi.

100 ta g'ujumni xajmini aniqlash. Bu uchun xajmini belgilovchi.

1000 ml shisha silindr idishlar kerak bo'ladi. Silindrga suv to'ldiriladi, keyin unga 100 ta g'ujum solinadi, natijada suvni satxi ma'lum belgigacha ko'tariladi, shu ko'tarilgan bo'lim uzumning 100 ta g'ujumni xajmi xisoblanadi va sm³ da ifodalanadi.

Uzum rangi uzum boshining eng asosiy sifat ko'rsatkichlaridan biridir. Bu ko'rsatkichga qarab, uzumni pishganligi aniqlanadi. Uzum navlari ko'pchiligi mevasining rang oq rang, buni aniqlash ancha qiyin chunki oq rang davlat standartida bir necha xilga bo'linadi. Shuning uchun rangni aniq ajratish uchun fotometrik usul yoki maxsus Bandarseva jadvali yordamida aniklanadi.

3.3.Uzum g'ujumi sharbati tarkibidagi qandini aniqlash

Uzum sharbati qandligi areometr, dala refraktometri va kimyoviy Bertran usuli bo'yicha aniqlanadi. Areometrlar suyuqlik zichligini aniqlaydi, sharbat og'irligini suv og'irligiga nisbatini ko'rsatadi.

Bir necha areometrlar xillari mavjud: oddiy areometr, areometr Eksle, areometr Bome, areometr Ballinga va boshqalar. Ular bir-biridan asosan shkaladagi bo'linishlari bilan farq qiladi.

Eng ko'p tarqalgani bu oddiy areometr, to'liq shishali payvan qilingan trubaday bo'lib ko'rinadi, ikkita qismdan tuzilgan: yuqori qism nozik-bo'yin va pastki qismi kengaygan - korpus (quticha).

Yuqori qismi shkala bo'linmalari joylashgan va raqamli ishora; pastki qism qo'rg'oshinga to'ldirilgan. Qaysiki, areometrda chidamlik beradi tik xolatda uni sharbatga botiriladi (1-rasm, areometr).

Uzunchilikda areometrlarni to'plami qo'llanadi. Ikkita ko'rsatkichda 1000 dan 1080 gacha qiymati bo'linishi 0,1 va 1080 dan 1160 gacha xam qiymati bo'lingan. Sharbat zichligini aniqlab (areometr ko'rsatkichiga ko'ra) aloxida (maxsus) jadval bo'yicha (5-jadval) sharbat tarkibidagi qand miqdori aniqlanadi. Sharbat zichligini aniqlashda uni qizdirish yoki sovutish temperaturalargacha, areometrda ko'rsatkichlar yoki tuzatish temperaturasi kiritish zarur.

Temperatura o'lchash tuzatishda 20°S temperaturadan farqi xar bir gradus 0,0002 teng. Agar sharbatning temperatura yuqori 20°S bo'lsa, bunda temperaturani tuzatishda areometr ko'rsatkichiga qo'shiladi. Agar sharbat temperaturasi 20°S dap past bo'lsa, uni ayiriladi.


Uzum sharbati tarkibidagi qand miqdori refraktometr usulida aniqlash yorug'likni suyuqlikka sindirish koeffitsiyentiga asoslangan. Refraktometr uzum g'ujumi sharbatidagi yeritma xolidagi quruq modda miqdorini aniqlandi. Dala

5-жадвал

Шарбат кандлиги ва шароб куввати

Шарбат зичлиги	Шарбат кандлиги % хис-да	Бўлажак шароб куввати % хис-да	Шарбат зичлиги	Шарбат кандлиги % хис-да	Бўлажак шароб куввати % хис-да	Шарбат зичлиги	Шарбат кандлиги % хис-да	Бўлажак шароб куввати % хис-да	Шарбат зичлиги	Шарбат кандлиги % хис-да	Бўлажак шароб куввати % хис-да
1035	6,3	3,7	1057	12,2	7,2	1079	18,0	10,6	1101	23,9	14,1
1036	6,6	3,9	1058	12,4	7,3	1080	18,3	10,8	1102	24,2	14,3
1037	6,9	4,0	1059	12,7	7,5	1081	18,6	10,9	1103	24,4	14,4
1038	7,2	4,2	1060	13,0	7,6	1082	18,8	11,0	1104	24,7	14,6
1039	7,4	4,4	1061	13,2	7,8	1083	19,1	11,2	1105	25,0	14,7
1040	7,5	4,5	1062	13,5	7,9	1084	19,4	11,4	1106	25,2	14,9
1041	8,0	4,7	1063	13,8	8,1	1085	19,6	11,5	1107	25,5	15,0
1042	8,2	4,8	1064	14,0	8,2	1086	19,9	11,7	1108	25,8	15,2
1043	8,4	5,0	1065	14,3	8,4	1087	20,2	11,9	1109	26,0	15,3
1044	8,7	5,1	1066	14,6	8,6	1088	20,4	12,0	1110	26,3	15,5
1045	9,0	5,3	1067	14,8	8,7	1089	20,7	12,2	1111	26,6	15,7
1046	9,2	5,4	1068	15,1	8,9	1090	21,0	12,3	1112	26,8	15,9
1047	9,5	5,6	1069	15,4	9,0	1091	21,2	12,5	1113	27,1	16,0
1048	9,8	5,7	1070	15,6	9,2	1092	21,5	12,6	1114	27,4	16,2
1049	10,0	5,9	1071	15,9	9,3	1093	21,8	12,8	1115	27,6	16,3
1050	10,3	6,0	1072	16,2	9,5	1094	22,0	12,9	1116	27,9	16,4
1051	10,6	6,2	1073	16,4	9,6	1095	22,3	13,1	1117	28,2	16,6
1052	10,8	6,3	1074	16,7	9,8	1096	22,6	13,3	1118	28,4	16,7
1053	11,1	6,5	1075	17,0	10,0	1097	22,8	13,4	1119	28,7	16,9
1054	11,4	6,7	1076	17,2	10,1	1098	23,1	13,6	1120	29,0	17,1
1055	11,6	6,8	1077	17,3	10,3	1099	23,4	13,8	1121	29,3	17,3
1056	11,8	7,0	1078	17,8	10,5	1100	23,6	13,9	1122	29,5	17,4

refraktometrda ko'rish trubasi, ikkita prizma birlashtirilgan bo'ladi. Bu metall tayanch bilan tugagan prizmada qaytarib qo'yiladigan qopqoq bor. Refraktometr shkalasi graduslarga 0 dan 30 gacha bo'lingan.



Rasm. Dala refraktometr:

1-umumiy ko'rinishi: 2- refraktometr ko'rsatkichi shkalasi sanog'i

Uzum qandligini refraktometrda aniqlash, areometr usuliga qaraganda aniqligi bir necha marta past. Sharbatdagi mavjud qand miqdoridan $\pm 0,2$ ga farq qiladi.

Uzum sharbati miqdori bo'yicha bo'lajak sharobni spirtligini aniqlash mumkin. Buning uchun amaliy koyeffisiyentdan foydalaniladi, bu teng 0,6 ga. Sharbat foiz qand miqdorini unga ko'paytirib, bo'lajak sharobning quvvati darajasi olinadi.

Areometr uzum sharbati qandligini zichligi bo'yicha aniqlaydi. Buning uchun:

Uzum g'ujumlarini shingildan ajratish;

- G'ujumdan latta qopcha orqali ajratilgan sharbat shishali stakan yoki sig'imi 200-250 millilitrli silindrga solinadi. Sharbat 20-25 minutda tiniqlashadi, yoki sharbat paxtali voronka orqali boshqa shisha stakanga filtrlanadi.

- Tiniqlangan sharbat toza yoki quruq sig'imi 250 ml silindrni $\frac{2}{3}$ xajmiga solinadi. Sharbatni quyishda yex'tiyotkor bo'lish kerak stakan devorida ko'pik xosil bo'lmasin. Agar u bari bir paydo bo'lsa, uni filg'tr qog'ozda olib tashlash zarur.

- Silindrga qo'yilgan sharbatning temperaturasini o'lchash. Termometr

ko'rsatgichi daftarga yoziladi.

Silindrdagi toza sharbatga quruq areometrni yextiyotkorlik bilan tushirish, uni nozik qismidan ushlab turiladi. Shunga areometr botishi to'xtamagunicha, uni qo'yib yuborish ruxsat yetilmaydi. Agar areometrni qo'yib yuborish yuz bersa va areometrning nozik qismini sharbat namlasa, yuqori bo'limlar, u botguniga qadar, areometrni silindrdan chiqarib, yuvish, qurda shamollatish va aniqlashni takrorlash kerak.

Areometr sharbatga botirib quyilgandan keyin tenglikka keladi va hozirgi sharbat va areometr temperaturasi bir tekisda turmagunicha yana 2-3 minut kutiladi va areometrning sharbatning spirtni yuzasi botgan shkalasi bo'linmasidan xisoblanadi.

Areometr ko'rsatgichini xisoblashda silindr devorlariga tegib ketmaslik kerak: u sharbatda tik xolatda suzish kerak. Areometr ko'rsatkichlarini to'g'ri xisoblash uchun areometrning nozik qismini sharbat bilan to'qnashgan balandligini ko'z bilish kerak.

Areometr ko'rsatkichlari daftarga yoziladi, keyin uni silindrdan chiqarib, toza suvda yuviladi va quruq shamollatiladi. Temperatura tuzatish qayta xisob qilinadi. Sharbatning zichligi ko'rsatkichlari bo'yicha, 5-jadvaldan sharbat qandligi miqdori aniqlanadi.

Aniqlashni takror qilishda va agar natijalar ikki parallel aniqlashda yaqin bo'lsa, ikkovidan o'rtachasi yoziladi, agar bular ahamiyatli farqlansa, yangi aniqlash qilinadi. Daftarga aniqlangan ikkita yaqin natijalar yoziladi.

Olingan ma'lumot qandlilik keltirilgan 6-jadval ko'rsatkichlar bilan taqqoslanadi va g'ujum sharbati tarkibidagi qandlik miqdoriga tasnif beriladi.

G'ujum sharbati qandligi

Qandlilik ko'rsatkichlari	Umumiy qand miqdori, % xisobida
Juda kam	14 dan kam
Kam	14-17
Yrtacha	17-20
Yuqori	20-25
Juda yuqori	25 dan yuqori

Uzum sharbati qandligini dala refraktometrda aniqlash. Buning uchun:

- Shisha tayoqchada sharbat tomchisi olib prizmalar yuzasiga tomiziladi va uning qopqoqchasi yopiladi.

- Okulyar orqali qaraladi va yorug'lik va soya o'rtasidagi kesishgan tik shkala chegarasi aniqlanadi.

- Okulyarda ko'ringan shkala buyicha tez xisobot o'tkaziladi va refraktometr ko'rsatkichi yoziladi.

Jadval va refraktometr ko'rsatkichlari bo'yicha sharbat qandligi aniqlanadi.

Uzum sharbati qandiligi dala refraktometr shkalalari ko'rsatkichlari bo'yicha (% xisobida)

Refraktometr ko'rsatkichlari	Y'ndan biri				
	0.1	0.2	0.4	0.6	0.8
15	13.6	13.8	14.0	14.3	14.5
16	14.7	14.9	15.1	15.4	15.6
17	15.8	16.0	16.2	16.5	16.7
18	16.9	17.1	17.3	17.6	17.8
19	18.0	18.2	18.4	18.7	18.9
20	19.1	19.3	19.5	19.8	20.0
21	20.2	20.4	20.6	20.9	21.1
22	21.3	21.5	21.7	22.0	22.2
23	22.4	22.6	22.8	23.1	23.3
24	23.5	23.7	23.9	24.2	24.4
25	24.6	24.8	25.0	25.3	25.5
26	25.7	25.9	26.1	26.4	26.6
27	26.8	27.0	27.2	27.5	27.7

